O‘zbekiston va Janubiy Koreya kimyo sanoati sohasida hamkorlikni mustahkamlamoqda

// 25.09.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zbekiston-va-janubiy-koreya-kimyo-sanoati-sohasida-hamkorl



Janubiy Koreyaning Dejon va Yeosu shaharlarida KOICA (Koreya Xalqaro Hamkorlik Agentligi) tomonidan tashkil etilgan “Kor-UZ”qo‘shma ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida seminar bo‘lib o‘tdi. Ushbu tadbir O‘zbekiston kimyo sanoatining raqobatbardoshligini oshirish hamda O‘zbekiston Kimyo Texnologiyalari Markazini (UzCCT) yanada rivojlantirishga qaratildi.

Seminarda O‘zbekiston va Janubiy Koreya olimlari tomonidan kimyo sohasida 6 ta ilmiy-texnikaviy ma’ruza taqdim etildi. Ikki tomon ham zamonaviy ishlanmalar va texnologiyalar bo‘yicha tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shuningdek, ishtirokchilar KRICT ilmiy laboratoriyalariga tashrif buyurib, zamonaviy uskunalar bilan tanishdilar va ularni qo‘llash imkoniyatlarini o‘rgandilar.




Shuningdek, seminar doirasida KOICA grant dasturlari asosida Janubiy Koreyada tahsil olayotgan magistr va PhD talabalar bilan uchrashuv ham tashkil etildi. Muloqot davomida UzCCTning istiqboldagi faoliyati, yosh tadqiqotchilarning markazdagi o‘rni va ularning bilim hamda tajribalarini mamlakatimiz sanoatini yanada rivojlantirishga yo‘naltirish masalalari muhokama qilindi.



Ushbu tadbir ikki mamlakat o‘rtasida kimyo sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash va ilmiy-tadqiqot sohasida yangi imkoniyatlarni ochishda muhim qadam bo‘ldi.

Kelajakda hamkorlikning yanada rivojlanishi O‘zbekiston kimyo sanoatining xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati